

E.VOHIDOVNING "O'ZBEGIM" QASIDASIDA KONSEPT TUSHUNCHASI

Rustamova Mashhura Shokir qizi

*Lingvistika(o'zbek tili)yo'nalishi magistranti,
Urganch davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi, xalq shoiri Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasidagi konsept tushunchasi lingvopoetik va kognitiv tahlil doirasida o'rganiladi. Tadqiqot davomida qasidaning asosiy konseptual maydonlari, ularning ichki tuzilishi, semantik qatlamlari hamda milliy madaniy kodlar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Qasidadagi bosh konsept - VATAN/O'ZBEKISTON - ning ko'p qirrali semantik strukturasi, uning periferiyasida joylashgan qo'shimcha konseptlar (TARIX, ILM-U MA'RIFAT, AZOB-UQUBAT, SADOQAT, ISTIQLOL) bilan munosabatlari she'riy matn asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida "O'zbekim" qasidasi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida konseptual tahlilning samarali namunasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: *konsept, konseptual maydon, Erkin Vohidov, "O'zbekim" qasidasi, milliy qadriyat, kognitiv poetika, vatan konsepti, milliy mentalitet, she'riy diskurs, lingvokulturologiya*

Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi asosiy tadqiqot ob'yektlaridan biriga aylangan. Konsept - bu madaniyat belgisi mental birlik bo'lib, u insonning ong va tafakkurida mazkur xalqning jahon manzarasi, milliy qadriyatlari va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Rus tilshunosi S.A. Askoldov konseptni "aqliy obraz" deb ta'riflagan bo'lsa, Ye.S. Kubryakova uni "ong va tafakkurning operativ birligi" sifatida talqin etadi. O'zbek tilshunosligida konsept masalasiga Sh.S. Safarov, N. Mahmudov, B. Mengliev kabi olimlar murojaat etgan. Sh.S. Safarov kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini ishlab chiqib, konseptni "insonning o'zini o'rab turgan olam haqidagi bilimlarini ifodalovchi mental birlik" deb ta'riflaydi.

Badiiy konsept umumiy konseptdan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi. U muallif obrazlilikiga ega, yuqori emotsional-estetik yuklanganlikka ega va she'riy matnda ko'p ma'nolilik, ramziylik hamda metaforiklik xususiyatlariga ega bo'ladi. Yu.S. Stepanov konseptni "madaniyatning asosiy hujayra"si deb ataydi va uning uch qatlamini ajratib ko'rsatadi: aktual qatlam (hozirgi zamon uchun dolzarb ma'no), tarixiy qatlam (passiv ma'nolar) va etimologik qatlam (dastlabki ma'no). Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi milliy o'zlikni anglash, vatan sevgisi va tarixiy xotira mavzularini chuqur falsafiy-she'riy darajada ifodalagan asarlardan sanaladi. Qasida klassik sharq adabiyotida maqtov, ulug'lash janri sifatida shakllangan bo'lib,

Erkin Vohidov bu janrni zamonaviy she'riy tilda yangilab bergan va unga milliy-falsafiy chuqurlik kiritgan .

Qasidaning dastlabki misralari markaziy VATAN/O'ZBEKISTON konseptini taqdim etadi va TARIX konseptini faollashtiradi:

*Tarixingdir ming asrlar,
Ichra pinhon o'zbekim .
Senga tengdosh Pomir-u,
Oqsoch Tiyonshon, O'zbekim...*

Tarix konsepti qasidaning asosiy konseptlaridan biri bo'lib, u "ming asrlar" ifodasi orqali vaqt o'lchamida cheksizlikni, uzoq davomiylikni bildiradi. "Ichra pinhon" birikmasi tarixning sir-asrorli, chuqur va ko'p qatlamli tabiati haqida gapiradi. Shoir tarixni yashirin xazina, ochilishi zarur bo'lgan sir sifatida ko'rsatadi. "Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon" qatori orqali VATAN konsepti geografik-tabiiy qatlam bilan boyitiladi. Pomir va Tiyonsho'n tog'lari nafaqat geografik ob'yektlar, balki qadimiylilik, ulug'lik va buyuklik ramzlari sifatida qaraladi .

ILM-U MA'RIFAT konsepti qasidada alohida muhim o'rin tutadi:

*Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Forob avlodidan ,
Asli nasli balki o'zluq,
Balki tarxon O'zbekim .*

Bu misralarda uch buyuk olimning nomlari - Al Beruniy, Al Xorazmiy va Al Forobiy - orqali ILM-U MA'RIFAT konseptining tarixiy qatlami ochiladi . "Avlodidan" so'zi orqali shoir naslchilik, davomiylik g'oyasini ifodalaydi. O'zbek xalqi shu buyuk mutafakkirlar avlodi sifatida ko'rsatiladi. Bu yerda VATAN konsepti nafaqat geografik hudud, balki ilm-fan va ma'rifat meros sifatida ham qaraladi.

AZOB-UQUBAT konsepti qasidaning muhim qismini tashkil etadi va o'zbek xalqining og'ir tarixiy sinovlardan o'tganligini aks ettiradi:

*O'ldilar sho'rlik boshingdan,
O'ynatib shamshirlarin
Necha qoon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.*

"Sho'rlik boshingdan o'ldilar" ifodasi bosqinchilik, istilo, zulm ma'nolarini o'zida mujassam etadi . "O'ynatib shamshirlarin" qismi urushlarning shiddati va ko'pligi haqida gapiradi. "Necha qoon, necha sulton, necha ming xon" takroriy konstruksiyasi orqali o'zbek xalqining tarixida ko'plab bosqinchilar, istilochi davlatlar bo'lganligini ta'kidlaydi. Takror uslubi emotsional ta'sirni kuchaytiradi va tarixiy jarohatlarning chuqurligini anglatadi. VATAN konseptining individualizatsiyasi keyingi bandlarda amalga oshadi:

Men Vatanni bog' deb aytsam

*Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon, o'zbekim.*

Shoir VATAN konseptini BOG' va KO'Z metaforalari orqali ifodalaydi. "Vatan - bog', o'zbek - gul" va "Vatan - ko'z, o'zbek - kiprik" parallel metaforalari orqali qism va butun munosabatlari ko'rsatiladi. O'zbek xalqi katta Vatan organizimining muhim, ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Erkin Vohidov qasidada konseptlarni ifodalash uchun boy badiiy vositalardan foydalanadi. Metafora eng samarali vositalardan biridir: "Ko'ksi osmon", "Chashmi giryon", "Bitta marjon", "Shu'la afshon", "Ko'kragida tog' ko'targan" kabi metaforalar konseptlarning obrazlilikini ta'minlaydi va ularni ko'p qirrali qiladi. Ramzlar (osmon, daryo, tog', quyosh, gul, kiprik) konseptlarning ma'naviy qatlamlarini ochadi va milliy madaniy kodlarni faollashtiradi. Sintaktik vositalar ham konseptual ma'nolarni mustahkamlashga xizmat qiladi. "O'zbekim" radifining deyarli har band oxirida takrorlanishi qasidaga lirik intonatsiya beradi va markaziy konseptni doimiy eslatib turadi. Parallel konstruksiyalar ("Menga Pushkin bir jahonu, menga Bayron bir jahon"), anafora ("Ortda qoldi"), savol-tasdiq konstruksiyalari emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Qasidadagi konseptual tizim o'zbek milliy mentalitetini chuqur aks ettiradi. VATANPARVARLIK o'zbek xalqi uchun eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. TARIXIY XOTIRANI ASRASH, ota-bobolarni hurmat qilish milliy xarakterning asosiy jihatlari ekanligi ta'kidlanadi. ILM-UMA'RIFATGA intilish o'zbek madaniyatining doimiy xususiyati sifatida ko'rsatiladi. AZOB-UQUBATGA SABR-QANOAT, qiyinchiliklarga chidamlilik o'zbek xalqining tarixan shakllangan xususiyatidir. ERKINLIKKA intilish erksevarlik, bo'ysunmaslik ruhiy kuch sifatida ifodalanadi. Qasidaning tuzilishi ham konseptual tizimni aks ettiradi. Asar tarixiy retrospektivadan (qadimgi tarix, bosqinlar, azoblar) boshlanib, hozirgi zamon (istiqlol, yangilanish) orqali kelajakka (umid, ishonch) yo'naladi. Bu tuzilish TARIX konseptining uch qatlamli (o'tmish-hozir-kelajak) strukturasiga mos keladi. Har bir band "o'zbekim" radifi bilan yakunlanishi markaziy VATAN konseptiga doimiy qaytishni, uning barcha fikrlar va hissiyotlarning markazida turishini ta'minlaydi.

XULOSA

Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasida konseptual tizim tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. She'rning markaziy konsepti VATAN/O'ZBEKISTON bo'lib, u ko'p qatlamli, murakkab semantik strukturaga ega. Ushbu konsept geografik makon (tuproq, tog'lar, daryolar), tarixiy jarayon (o'tmish, hozir, kelajak) va ma'naviy qiymat (muqaddaslik, mehr, sadoqat) qatlamlarini o'z ichiga oladi.

Qasidadagi konseptlar tarmog‘i bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiladi. VATAN, TARIX, ILM-U MA’RIFAT, AZOB-UQUBAT, SADOQAT, ISTIQLOL konseptlari yaxlit konseptual maydon hosil qiladi. Har bir konsept boshqalarini to‘ldiradi va chuqurlashtiradi.

Badiiy konsept umumiy til konseptidan o‘zining individual-muallif talqini, yuqori emotsionallik darajasi, ramziy-metaforik ifodasi bilan ajralib turadi. Erkin Vohidov klassik sharq adabiyoti an‘analarini (qasida janri) zamonaviy she’riy tilda yangilab bergan va milliy konseptlarni chuqur falsafiy darajada talqin etgan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u o‘zbek adabiyotshunosligida konseptual tahlil metodologiyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi va badiiy matnlarni tadqiq etishning zamonaviy usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa oliy ta’lim muassasalarida adabiyot va tilshunoslik fanlarini o‘qitishda, shuningdek milliy-ma’naviy tarbiya ishlarida foydalanish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vohidov E. O‘zbekim. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1992.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2006.
3. Askoldov S.A. Kontsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. – Moskva, 1997.
4. Kubryakova Ye.S. Yazyk i znaniye. – Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004.
5. Mahmudov N., Dadaboyev H. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati – T.: O‘qituvchi, 2008.